

TURKISTON ASSR TARIXIY GEOGRAFIYASI

Yuldosheva Bibirajab

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d (PhD).

Sharifova Shodiya

Buxoro davlat universiteti Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqola Turkiston ASSRning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yuz bergan hududiy-siyosiy, ma'muriy va iqtisodiy o'zgarishlarning tarixiy geografik manzarasini tahlil etadi. Tadqiqotda 1918–1924 yillar davomida respublika chegaralarining belgilanishi, milliy-hududiy siyosatning ta'siri, ma'muriy bo'linmalar transformatsiyasi, aholi joylashuvi va xo'jalik hududlarining qayta tashkil etilishi bo'yicha tarixiy manbalar, kartografik materiallar va arxiv hujjatlari asosida ilmiy xulosalar beriladi. Maqola Turkiston ASSRning siyosiy-geografik qiyofasi qanday shakllanganini ko'rsatib, Markaziy Osiyoda sovet davlatchiligining ilk bosqichlaridagi hududiy jarayonlarni kompleks tarixiy-geografik tahlil asosida yoritadi.

Kalit so'zlar: *Turkiston ASSR, tarixiy geografiya, ma'muriy-hududiy bo'linish, milliy-hududiy siyosat, demografik jarayonlar, sovetlashtirish.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется историко-географический ландшафт территориально-политических, административных и экономических изменений, произошедших в период формирования и развития Туркестанской АССР. На основе архивных документов, картографических материалов и исторических источников рассматриваются процессы определения границ республики, влияние национально-территориальной политики, трансформация административного деления, размещение населения и перестройка хозяйственных районов в 1918–1924 годах. Материал позволяет раскрыть формирование политико-географического облика Туркестанской АССР и представить ключевые территориальные процессы раннего этапа советского государствовоительства в Центральной Азии.

Ключевые слова: *Туркестанская АССР, историческая география, административно-территориальное деление, национально-территориальная политика, демографические процессы, советизация.*

KIRISH

XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududi siyosiy, ma'muriy va ijtimoiy jarayonlar keskin o'zgarishga duch kelgan makonga aylandi. 1918-yilda Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi mintaqaning tarixiy geografiyasida tub burilish yasab, yangi siyosiy chegaralar, ma'muriy bo'linmalar va xo'jalik hududlarining shakllanishiga zamin yaratdi. Turkiston ASSR tarkibidagi turli mintaqalar — Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo, Kaspiybo'yi viloyatlari va boshqa hududlarning geografik o'ziga xosliklari sovet hokimiyatining birinchi yillarida olib borilgan ma'muriy islohotlar jarayonida qaytadan talqin qilindi. Bu davrda milliy tarkib, aholi zichligi, tarixiy-geografik rayonlashuv, tabiiy resurslar va iqtisodiy aloqalarning qayta tashkil etilishi kabi masalalar yangi davlat tuzilmasining shakllanishida muhim omil bo'ldi.

Turkiston ASSRning tarixiy geografiyasini o'rganish nafaqat mintaqaning geografik tasvirini qayta tiklash, balki sovet davrining ilk yillarida amalga oshirilgan siyosiy va ma'muriy jarayonlarning tub mohiyatini anglashga yordam beradi. 1918–1924 yillar davomida olib borilgan hududiy islohotlar, milliy-hududiy chegaralarning shakllanishi, yangi ma'muriy birliklarning joriy etilishi, transport yo'llarining qayta tashkil etilishi va iqtisodiy rayonlashuv — bularning barchasi keyinchalik O'rta Osiyoda yuz bergan milliy-hududiy chegaralanish jarayoniga bevosita zamin bo'lgan. Ushbu maqola mazkur jarayonlarni tarixiy manbalar, arxiv materiallari va kartografik ma'lumotlar asosida tahlil qilib, Turkiston ASSRning siyosiy va geografik qiyofasi qanday shakllanganini kompleks ilmiy yondashuv asosida yoritishni maqsad qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan siyosiy jarayonlar o'lkaning tarixiy taqdirini tubdan o'zgartirdi. 1917-yilgi Fevral inqilobi natijasida podsho hukumatining ag'darilishi o'lka siyosiy hayotida keskin burilish yasadi. "O'zbekiston SSR tarixi" asarida qayd etilishicha, inqilobdan so'ng Turkiston o'lkasida hokimiyat uchun kurash kuchayib, turli siyosiy guruhlar - bolsheviklar, eserlardan tortib, mahalliy ziyolilar va milliy ozodlik tarafdorlari o'rtasida ziddiyatlar kuchaydi. [13. 70-73b].

1917-yil dekabr oyida Qo'qon shahrida o'tkazilgan Qurultoyda "Turkiston Muxtoriyati" e'lon qilindi. Bu voqea o'lka xalqlarining milliy o'zligini anglashida muhim qadam bo'ldi. Ammo bu muxtoriyat mahalliy aholi istagiga tayanmagan, sovetlar esa uni «burjua muxtoriyati» deb e'lon qilib, unga qarshi chiqdi. Bolsheviklarning asosiy maqsadi «proletar muxtoriyati»ni o'rnatish edi. Lenin va Stalinning siyosatiga binoan, «millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash» g'oyasi «mehnatkash sinflarning o'z taqdirini o'zi belgilash» tamoyiliga almashtirildi. [12.

154-b]. 1918-yil fevral oyida Toshkentda joylashgan sovet harbiy qismlari tomonidan Qo‘qon Muxtoriyati qurolli yo‘l bilan tugatildi.

1918-yil boshlarida RSFSR Millatlar xalq komissarligi Turkistonda sovet asosidagi muxtor respublika tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Bu jarayon mahalliy xalq tashabbusi bilan emas, balki to‘liq Moskva ko‘rsatmasi bilan olib borildi. 1918-yil mart oyida Turkistonga N. Kobozev, A. Klevleyev va H. Ibrohimov kabi markaz vakillari yuborilib, ular yangi sovet tuzumini shakllantirish ishlarini boshqardilar [2. 98-b].

Mazkur yig‘inda F. I. Kolesov boshchiligida 14 kishidan iborat Xalq komissarlari soveti ham saylandi. Turkiston hukumati tarkibiga birinchi marta mahalliy millat vakillari O. Tursunxo‘jayev, X. Ibrohimov va T. Ashurxo‘jayev ham saylandi. Shu tariqa, Moskvaning ko‘rsatmasi bilan Turkistonni Sovet Avtonom Respublikasi deb e‘lon qilgan sovetlarning V o‘lka syezdi (1918-yil aprelida) qadar bo‘lganidek, ko‘p millionli mahalliy aholi vakillaridan o‘lkani boshqarishda ishtirok etishi maksimal darajada qolaverdi. Avvalgidek Turkistonni mahalliy aholi vakillari bo‘lmagan, bolsheviklar va so‘l eserlar partiyalariga mansub ishchilar, askarlar, ziyolilardan chiqqan tor doira vakillari boshqarishni davom ettirishdi. Turkiston ASSR hokimiyat tuzilmalariga Oktyabr to‘ntarishi natijasida o‘rnashib olgan bolsheviklar va umuman Yevropaliklarning mahalliy aholiga nisbatan zo‘ravonligi haqida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik respublikasi MIQ raisi Abdulla Rahimboyev sovetlarning IX o‘lka syezdi (1920-yil sentabr)da qilgan ma‘ruzasida ta’kidlaganidek, «... ko‘pgina hollarda o‘sha rus kelgindisi sotsialistik inqilob shiorlarini o‘z foydasiga qaratib, tinch mahalliy aholini talashda davom etdi» [1. 59-b].

1918-yil 20-aprelda Toshkentda sovetlarning V o‘lka syezdi chaqirildi. Syezdi ishida 263 delegat ishtirok etdi, shunday atigi 50 nafari mahalliy millat vakillari edi. Shu syezdda «Turkiston Sovet Federativ Respublikasi to‘g‘risidagi nizom»i tasdiqlandi [7. 43-b]. Nizomga binoan, Turkiston o‘lkasi Rossiya Sovet Federatsiyasining tarkibiy qismi sifatida e‘lon qilindi. Xiva va Buxoro esa bu hududdan mustasno edi.

Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi (TurkMIQ) 36 kishidan iborat qilib tuzildi. Ularning yarmi bolsheviklardan, yarmi esa so‘l eserlardan iborat edi. Ammo bu tashkilot tarkibida mahalliy millat vakillari juda kam edi. Shuningdek, 14 kishilik Xalq Komissarlari Kengashi (hukumat)tuzildi, ulardan faqat uchta — O. Tursunxo‘jayev, H. Ibrohimov va Ashurxo‘jayev – mahalliy aholi vakillari bo‘lgan.

Turkiston ASSRning faoliyati Markazning to‘liq nazorati ostida olib borildi. Mahalliy aholi siyosiy hayotdan chetlashtirildi, milliy tashkilotlar («Sho‘roi Ulamo»,

«Sho‘roi Islom» va boshqalar)tarqatildi, milliy matbuot («Ulug’ Turkiston», «Izoh», «Izhor ul haq») yopildi.

Sovet hukumatining bu siyosati mahalliy aholi orasida norozilikni kuchaytirdi. 1918-1921-yillar oralig‘ida Turkiston iqtisodiyoti og‘ir ahvolda edi. Birinchidan, fuqarolar urushi, ikkinchidan, sovet hokimiyatining markaziy siyosati mintaqada ishlab chiqarishini izdan chiqardi. «Harbiy kommunizm» siyosati asosida prodrazvyorstka – dehqonlardan oziq-ovqat mahsulotlarini majburiy olib qo‘yish joriy etildi. Natijada dehqon xo‘jaliklari inqirozga yuz tutdi, ocharchilik va noroziliklar avj oldi. [9. 173-b].

1921-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, paxta maydonlari 1915-yildagiga nisbatan 45 foizga kamaygan, chorva soni esa 24 million boshdan 8 million boshga tushgan. Bu holat respublika iqtisodiyotini inqiroz holatiga olib kelgan.

1921-yildan boshlab Sovet hukumati «Yangi iqtisodiy siyosat» (NEP)ni joriy etdi. Bu siyosat xususiy tadbirkorlikka cheklangan ruxsat berdi, bozor aloqalarini qisman tikladi. Turkiston ASSRda paxta, yog‘-moy sanoati, ipakchilik, hunarmandchilik va oziq-ovqat ishlab chiqarish tarmoqlari qayta jonlana boshladi.

1922-1923 yillarda Toshkent, Samarqand, Andijon kabi shaharlarda 300 DAN ortiq mayda ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritgan. Sanoat ishlab chiqarish 1920-yillarning o‘rtalariga kelib 40 foizga o‘sd. (Xo‘jayev F., «Turkiston iqtisodiyoti va sovet siyosati, 1985»). Turkiston iqtisodiyotining asosini qishloq xo‘jaligi tashkil etgan. Aholisining 80 foizi dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Paxta, g‘alla, meva-sabzavot va ipak mahsulotlari asosiy eksport turlari bo‘lgan.

Iqtisodiy rivojlanishda temiryo‘l tizimi muhim rol o‘ynadi. 1920-yillarda Orenburg – Toshkent temiryo‘li va Kaspiyorti – Ashxobod – Marv yo‘nalishlari asosiy iqtisodiy arteriyalar sifatida xizmat qilgan. Ammo temiryo‘l infratuzilmasi Rossiya markazida bo‘ysundirilgani sababli, mintaqada iqtisodiy mustaqillikka erisha olmagan.

1920-yillar boshida urush, ocharchilik va iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida aholining soni keskin kamaygan. 1922-yilgi hisobotlarga ko‘ra, Turkistonda 500 mingdan ortiq inson ochlikdan halok bo‘lgan (Mavlonov, 1998). Shunga qaramay, 1923-1924-yillarda aholi soni asta sekin tiklana boshladi.

Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, yangi ta‘lim tizimi joriy etildi. 1919-yilda Turkiston Xalq Komissarlari Soveti huzurida «Xalq maorifi komissarligi» tashkil qilinib, yangi turdagi maktablar ochildi. 1923-yilda esa Turkiston Davlat Universiteti (keyinchalik O‘rta Osiyo Davlat Universiteti) faoliyat boshladi.

Madaniyat sohasida savodsizlikni tugatish («Likbez») kompaniyasi e‘lon qilindi. Natijada 1924-yilgacha 200 mingdan ortiq kishi savod chiqarishga muvaffaq bo‘ldi.

Turkiston ASSR davri sovet hokimiyatining mahalliyashtirish siyosati natijasida milliy kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratildi. Biroq bu siyosat ko'pincha formal tusda bo'lgan. Mahalliy aholi orasida sovet siyosatiga qarshi noroziliklar, jumladan, Bosmachilik harakati keng yoyildi.

1918-yil 30-aprelda tashkil etilgan Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik respublikasi (Turkiston ASSR) Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. Biroq bu «avtonomiya» amalda mustaqillikni emas, balki Moskvaning mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash vositasini ifodalardi. Turkiston xalqlari o'z davlatini barpo etish istagida bo'lsalar-da, sovet hokimiyati milliy davlatchilikni sinfiy yondashuvga bo'ysundirdi. Shu sababli, Turkiston ASSR qisqa tarixiy davr ichida tub millatlar manfaatlariga javob bermagan siyosiy tuzilma bo'lib qoldi. Aynan shu omillar keyinchalik – 1924-yilda o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish jarayoniga olib keldi.

Turkiston ASSR tashkil etilgan paytda o'lka aholisining 95 foizdan ortig'ini mahalliy millatlar– o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qirg'izlar va qozoqlar tashkil etgan bo'lsa-da, hukumatdagi rahbarlik lavozimlari asosan rus bolsheviklari qo'lida edi. [14. b-73]. Markaz tomonidan yuborilgan vakillar, jumladan N. Kobozev, Klevleyev, H. Ibrohimov lar Turkiston siyosatini to'liq nazorat qildilar. Natijada Turkiston hukumati nomigagina «muxtoriyat» maqomiga ega bo'ldi, lekin siyosiy, iqtisodiy va ma'muriy jihatdan Moskva manfaatlariga bo'ysundi. Bu jarayon o'lka xalqlari orasida norozilikni kuchaytirib, milliy o'zlikni anglash, tarixiy davlatchilik g'oyalarining qayta tiklanishiga zamin yaratdi.

1920-yillarning boshlariga kelib, Turkiston ASSR ichida millatlararo ixtiloflar chuqurlashdi. Bunga bir tomondan, iqtisodiy notenglik va siyosiy vakillikning yo'qligi, ikkinchi tomondan esa markaz tomonidan o'tkazilgan ruslashtirish siyosati sabab bo'ldi. Moskva bu ziddiyatlarni «milliy masalani hal qilish» yo'li bilan yumshatish niyatida bo'ldi. Shu tariqa, 1924-yilda Markaziy Osiyo respublikalarini milliy-hududiy chegaralash siyosati ishlab chiqildi.

Bu siyosat RSFSR Millatlar xalq komissarligi va Turkkommissiya tomonidan nazorat qilinadi [7. 43-b]. Chegaralanish jarayonining tashkiliy negizlari 1918-yilgi Turkiston s'yezdlari qarorlarida, ya'ni sovet asosidagi «proletar muxtoriyat» tamoyilida shakllangan edi. Markaz uchun muhim maqsad –milliy harakatlarni parchalanishga uchratish, yagona Turkiston g'oyasini yo'q qilish edi.

Milliy chegaralanish masalasi bir necha bor Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari, shuningdek, RKP(b) Markaziy Qo'mitasining O'rta Osiyo byurosi yig'ilishlarida muhokama qilindi. Ushbu siyosatni amalga oshirish uchun maxsus

Turkkommissiya tuzilib, unga RKP(b) MK kotibi Y. E. Rudzutak rahbar etib tayinlandi.

1924-yil 5-aprel kuni RKP (b) Siyosiy byurosi da milliy-hududiy chegaralanish masalasi rasmiy ko'rib chiqildi. 2-iyun kuni O'rta Osiyo byurosi yig'ilishida lohiya asosan ma'qullandi. Biroq bu qarorga qarshi chiqishlar ham bo'ldi, Xorazm, Turkiston va Buxoro respublikalari vakillari – Sultonbek Xo'janov, Sanjar Asfandiyorov, Odinayev, Abdusalomov singari arboblardan bu qarorni tanqid qilib, «O'rta Osiyo federatsiyasini tuzish» g'oyasini ilgari surdilar. Ular yagona Turkiston g'oyasini himoya qildilar, ammo ularning fikrlari e'tiborga olinmadi.

1924-yil 12-iyunda RKP(b) siyosiy byurosi «O'rta Osiyo respublikalarini milliy chegaralanish to'g'risida» qaror qabul qildi. Shu asosda joylarda tashviqot-targ'ibot ishlari kuchaytirildi, xalq orasida bu siyosat «xalq manfaatiga xizmat qiladi» degan noto'g'ri tasavvur uyg'otadi. 1924-yil 25-sentyabrda Markaziy Qo'mita bu qarorni rasman ma'qullab, Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalarini tugatish jarayonini boshlab yubordi. Natijada 1924-yil 27-oktyabrda SSSR BMIQ II sessiyasida O'rta Osiyoda yangi milliy respublikalar tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi.

1924-yilda o'tkazilgan milliy-hududiy ajratish natijasida Turkiston ASSR tarqatib yuborildi. Uning o'rnida besh yangi siyosiy birlik– O'zbekiston SSR, Turkmaniston SSR, Qirg'iz (avval qora-qirg'iz) muxtor viloyati, Tojik muxtor viloyati va Qozog'istonning janubiy qismi shakllantirildi. Bu jarayon sovet siyosati nuqtayi nazaridan «millatlar manfaatini himoya qilish» deb e'lon qilinsa-da, aslida mintaqadagi siyosiy nazoratni kuchaytirish, milliy birlik g'oyasini parchalashga qaratilgan edi. [14. 161-163].

Chegaralanish jarayonida etnik, til va tarixiy omillar hisobga olingandek ko'rinib borganida, amalda iqtisodiy manfaatlar va markazning siyosiy maqsadlari ustuvor bo'ldi. Natijada ayrim etnik guruhlar turli respublikalarga bo'linib ketdi, tarixiy jihatdan bir-biriga bog'liq hududlar ajratildi. Shunday qilib, Turkiston xalqlarining asrlar davomida shakllangan madaniy va iqtisodiy yaxlitligi buzildi.

1917-yil fevral inqilobi Rossiyada mustamlakachilik siyosatini vaqtincha susaytirgan bo'lsa-da, sobiq imperiya mustamlakalarida, jumladan, Turkiston o'lkasida siyosiy vaziyat murakkabligicha qoldi. Shu davrda milliy ziyolilar va jadidlar Turkistonning siyosiy mustaqilligini ta'minlash g'oyasini ilgari surdilar. 1918-yil 30-aprelda Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (Turkiston ASSR) rasman tashkil topdi. Bu respublika Sovet Rossiyasi tarkibidagi avtonom tuzilma sifatida maydonga chiqdi.

Turkiston ASSR tashkil topgan davrda uning tarkibida hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Qozog'istonning janubiy qismlari kirgan. Respublika markazi Toshkent shahri etib belgilandi. Ma'muriy jihatdan Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo, Yettisuv(Semirechye) va Kaspiyorti viloyatlarini o'z ichiga olgan. Hudud jihatdan u ulkan maydonni -1, 5 million kvadrat kilometrdan ortiq hududni qamrab olgan bo'lib, 5 milliondan ziyod aholi istiqomat qilgan. Shuningdek, turli millatlar — o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik va tatar xalqlari bu hududda yashagan.

Turkiston ASSR iqtisodiy jihatdan agrar o'lka edi. Paxta yetishtirish, ipakchilik, hunarmandchilik va chorvachilik asosiy sohalarni tashkil etgan. Biroq, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida bu iqtisodiyot markazga bo'ysunuvchi, ekspluatatsion xarakterga ega bo'lib, mahalliy aholi manfaatlariga zid tarzda boshqarilgan. 1920-1923-yillarda Rossiya kommunistik partiyasining vakillari o'lkada mustamlakachilikning yangi shaklini —»sovetlashtirilgan mustamlaka» modelini joriy etganla [11. 37-39-b].

Tarixiy-geografik jihatdan Turkiston ASSR strategik ahamiyatga ega bo'lgan hududda joylashgan edi. U shimolda Rossiyaning Orenburg viloyati bilan, janubdan Afg'oniston bilan, sharqda Xitoy bilan va g'arbda Kaspiy dengizi orqali Kavkaz hamda Eron bilan chegaradosh bo'lgan. Bu joylashuv o'lkaning harbiy, siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan katta ahamiyat kasb etishini ta'minlaydi. Shu sababdan ham sovet rahbariyati bu hududni nazoratda ushlab turishga harakat qilgan.

Biroq, Turkiston ASSR tashkil topishi bilan siyosiy barqarorlik ta'minlanmadi. 1918-1924-yillar davomida o'lkada qurolli qarshilik harakati —»bosmachilik» harakati keng avj oldi. Bu harakatning geografiyasi asosan Farg'ona vodiysi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro va Xorazm atrofida shakllandi. Mahalliy aholi orasida sovet siyosatiga qarshi noroziliklar kuchli bo'lganligi sababli, ko'plab viloyatlarda vaqtincha xalq hokimiyatlari tuzildi, ayrim joylarda esa sovet idoralari butunlay yo'q qilindi.

Turkiston ASSR tarixiy geografiyasini tahlil etishda shuni ham ta'kidlash lozimki, bu respublika aslida yagona siyosiy, iqtisodiy va etnik birlikni ifoda etmagan. Turkiston o'lkasining tabiiy -geografik farqlari -cho'l, vodiy va tili hududlar, shuningdek, aholi tarkibidagi etnik rang-baranglik uni boshqarishda muhim to'siq bo'lgan. Bu holat sovet markaziy hokimiyati tomonidan o'lka siyosatini qayta ko'rib chiqishga sabab bo'ldi.

1917-1924-yillar oralig'ida sobiq Rossiya imperiyasi tarkibida tashkil etilgan Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi o'z davrining eng murakkab siyosiy va ijtimoiy sinovlarini boshdan kechirdi. Bolsheviklar hokimiyatining

zoʻravon siyosati, iqtisodiy tajribalari va zoʻraki kollektivlashtirish siyosati natijasida mintaqada keng koʻlamli ocharchilik, ijtimoiy tanglik hamda xalq ommasining noroziligi yuzaga keldi. Mazkur maqolada ushbu maqolada ushbu jarayonning asosiy sabablari, oqibatlarini hamda tarixiy bahosi yoritiladi.

Turkiston ASSR da 1918-1921-yillar mobaynida yuzaga kelgan ocharchilik oʻz ildizini, avvalo, fuqarolar urushi davrida bolsheviklarning iqtisodiy siyosatidan oldi. «Harbiy kommunizm» deb nomlangan siyosat doirasida barcha oziq-ovqat zaxiralari davlat ixtiyoriga olinib, majburiy rekvizitsiya yoʻli bilan aholining qoʻlidan tortib olindi. Natijada, dehqonlar oʻz hosilidan foydalana olmay, yerlarni ekmay qoʻydi.

1921-yilda Turkistonning koʻplab viloyatlarida ocharchilik avj oldi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Sirdaryo va Fargʻona viloyatlarida minglab insonlar ochlikdan halok boʻldi.

Manbalarda keltirilishicha, 1921-yilning yozida Turkiston respublikasi aholisi orasida oziq-ovqat yetishmovchiligi shu darajada yetganki, hatto pichan, daraxt barglari va jonivor goʻshti bilan tirikchilik qilganliklari haqida guvohlar qayd etganlar. [7. 43-b]. Bu paytda bolsheviklar markaziy Rossiyada ham ocharchilikka qarshi kurashni bahona qilib, Turkiston zaxiralarini Moskvaga yuborishni buyurganlar.

1921-yilning avgustiga kelib Turkiston ASSRda 2 milliondan ortiq aholi oziq-ovqat yetishmovchiligi girdobida yashagan, ularning yarmi ochlikdan azob chekayotgan edi. Ayniqsa, Sirdaryo, Fargʻona va Samarqand viloyatlarida ocharchilik holatlari eng ogʻir koʻrinishga ega boʻlgan. 1921-yil yozida mintaqadagi hosil kambagʻalligi, fuqarolar urushi davridagi yoʻqotishlar va transport tizimining ishdan chiqishi vaziyatni yanada ogʻirlashtirdi. «Fargʻona va Sirdaryo viloyatlarida aholi non oʻrniga quritilgan oʻt va somonni isteʼmol qilmoqda. Bu ocharchilik insoniyat fojiasi darajasiga yetdi.

Oʻlkadagi ocharchilikni kuchaytirgan yana bir omil — transport va taʼminot tizimining izdan chiqishidir. Turkiston temir yoʻllari harbiy yuk tashishga yoʻnaltirilgani sababli, oziq-ovqat mahsulotlari aholiga yetib bormas edi. 1922-yilga kelib, Turkiston ASSR ning deyarli barcha viloyatlarida ochlikdan oʻlganlar soni yuz minglab kishilarga yetdi [3. 203-b].

Bolsheviklar Turkiston ASSRni «markazga toʻliq boʻysundirilgan oʻlka «sifatida qarab, mintaqadagi mahalliy xususiyatlarni inkor etdilar. 1920-1923 yillarda «harbiy kommunizm « siyosati doirasida ekin maydonlari qizil armiya ehtiyojlari uchun musodara qilindi. Bu jarayon xalq orasida norozilikni keltirib chiqardi va koʻplab joylarda qurolli toʻqnashuvlarga sabab boʻldi. «Bolsheviklar oʻz hokimiyatini

mustahkamlash uchun aholini ochlikka mahkum qildi. Ular o‘zlarini inqilob himoyachilari deb atab, aslida xalqning so‘nggi nonini ham tortib oldilar» [3. 63-b].

Bundan tashqari, bolsheviklar diniy uylarga, madrasalarga va mahalliy vakillarga nisbatan ta‘qib siyosatini kuchaytirdilar. 1922-yilda 1000 DAN ortiq imom va ulamo «kontrevolyutsion unsur» sifatida qamoqqa olingan yoki surgun qilingan. Markazning beboshligi nafaqat diniy hayotda, balki iqtisodiy tizimda ham namoyon bo‘ldi. Moskvadan kelgan komissarlar mahalliy ehtiyojlarni hisobga olmasdan, rejalashtirishni faqat Rossiya manfaatlariga yo‘naltirilgan. 1922-yilda Turkiston ASSR dan, oskvaga 63 ming tonna paxta yuborilgan, lekin uning evaziga faqat 3000 tonna bug‘doy olingan xolos. (Rossiya Davlat Iqtisodiy arxivi.)

1922-yil oxiriga kelib, ocharchilik butun Turkistonni qamrab oldi. 1921-1923 yillarda ochlik va kasalliklardan 300 mingdan ortiq inson halok bo‘lgan. Turkiston ASSR davrida yuz bergan ocharchilik va bolsheviklarning bebosh siyosati mintaqa tarixida og‘ir iz qoldirdi.

Bolsheviklarning beboshligi faqat iqtisodiy siyosatda emas, balki siyosiy sohada ham namoyon bo‘ldi. Ular mahalliy xalqning milliy manfaatlarini inkor etib, ruslashtirish siyosatini kuchaytirdilar. Diniy ulamolar, milliy ziyolilar va sobiq jadidlar «aksinqilobchi kuchlar» sifatidata‘qib qilindi. Mahalliy aholi norozilik bildirgan joylarda harbiy kuch ishlatildi. Farg‘ona vodiysi va Xorazmda «bosmachilik» deb atalgan xalq harakati aynan shu adolatsizliklarga javoban yuzaga kelgan.

Ocharchilik davrida xalq orasida bolsheviklarga nisbatan nafrat kuchaygan. Ko‘plab tarixiy hujjatlar, jumladan Rossiya Davlat Iqtisodiy arxivi(RGAE)da saqlanayotgan hisobotlarda, «Turkistonda oziq-ovqat siyosati aholining noroziligiga sabab bo‘ldi» deb qayd etilgan.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillari «inqilobiy o‘zgarishlar dadavri deb ataladi. Bu yillarda amalga oshirilgan islohotlar, , yer va mulk islohoti’’ 1918-yil dekabrda. Yer terisidagi dekretga muvofiq, barcha yerlar davlat mulkiga o‘tkazildi. Yer egalari, xonlar, beklar, boylar va diniy mulkdorlarning yerlari musodara qilindi. Dehqonlarga yerni ijarasi foydalanish huquqi berilgan bo‘lsa-da, amalda ularning faoliyati mahalliy sovetlar nazorati ostida bo‘ldi. Sanoat va ishlab chiqarishni milliyalashtirish — 1919-yilda sanoat korxonalari, transport tarmoqlari va banklar davlat mulkiga o‘tkazildi. Bu bilan xususiy mulk yo‘q qilinib, ishlab chiqarish ustidan to‘liq davlat nazorati o‘rnatildi.

Savdo va taqsimot tizimi islohoti —»Harbiy kommunizm «siyosati asosida mahsulotlar bepul taqsimlanar, ammo bu iqtisodiy tanazzulga olib keldi. 1921-yilga kelib, oziq-ovqat tanqisligi va ocharchilik kuchaydi. Sovetlar xalq hokimiyati shiorini

ilgari surgan bo'lsa da, aslida bu markazdan boshqariluvchi mustamlaka shakliga aylandi. Turkiston xalqi o'z tabiiy boyliklaridan mahrum qilindi [2. 99-b]

1918-yilgi Turkiston ASSRning tashkil topishi bilan sovet hokimiyati o'lka xalqlariga «milliy o'z taqdirini o'zi belgilash «huquqini band qilgan edi. Biroq, mahalliy aholi iqtisodiy va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidan butunlay chetlatilgan. Rossiyadan kelgan bolshevik kadrlar barcha asosiy lavozimlarni egallab, o'lkaning tabiiy boyliklari va agrar resurslarini markazga yo'naltirish siyosatini yuritganlar. 1920-yillarda paxta siyosatining kuchaytirilishi natijasida dehqonlarning erkin mehnat qilish imkoniyati yo'qoldi. Turkiston sovet hokimiyati milliy masalani hal qilish o'rniga, mustamlakachilik siyosatini yangi shaklda davom ettirdi; xalqni oziq-ovqatdan, siyosiy irodadan va diniy qadriyatlardan mahrum qildi. [3. 65-68b].

Shu bois, sovet siyosatiga qarshi norozilik avvalo diniy va milliy ongli qatlamlar orasida kuchaydi. Jadid ziyolilari –Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Fitrat, Qodiriy kabi ma'rifatparvarlar milliy uyg'onish g'oyalarini yoyib, xalqni ozodlikka chaqirdilar.

Milliy ozodlik harakatining asosiy sabablari: sovetlarning diniy qadriyatlarga qarshi kurashi(masjid va madrasalarning yopilishi, ulamolarning qatag'on qilinishi)., mahalliy aholining iqtisodiy erkinligini cheklash, mahalliy ziyolilarning siyosiy cheklanishi, mahalliy xalqning o'zini o'zi boshqarish huquqining yo'qligi.

Harakatning asosiy markazlari Farg'ona vodiysi, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida shakllangan. Bu davrda xalq orasidan chiqqan ko'plab sarkardalar ozodlik kurashini boshqargan: Madaminbek, Junaidxon, Fuzayl Maxsum, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon kabi yetakchilar har bir viloyatda mustaqillik uchun harakat qilganlar.

Madaminbek o'z faoliyatini bilan Farg'ona vodiysida xalqni birlashtirishga, sovet zo'ravonligiga qarshi kurashni siyosiy shaklga keltirishga harakat qildi. U Turkiston Muxtoriyati g'oyasini amalda tiklash tarafdori edi [9. 173-b]

Buxoro va Xorazm hududida Junaidxon boshchiligidagi harakatlar sovet hokimiyatiga qarshi eng uzoq muddatli va uyushgan chiqishlardan biri bo'ldi. 1924-yilgacha davom etgan bu kurashda minglab insonlar halok bo'ldi, ammo xalq ruhida mustaqillik g'oyasi yanada mustahkamlandi. Milliy ozodlik harakatining mafkuraviy ildizi jadidchilik DAN o'sib chiqqan edi. Jadidlar o'z matbuotlari orqali xalqni ilm-ma'rifatga, ijtimoiy uyg'onishga va siyosiy erkinlikka chorlagan. Jadid ziyolilar xalqni faqat ma'rifat bilan emas, balki ijtimoiy uyg'onidh orqali ham ozodlikka yetaklashni maqsad qilganlar. Ularning qarashlari keyinchalik qurolli milliy harakatlar uchun mafkuraviy tayanch bo'lib xizmat qildi. Sovet hokimiyati esa bu harakatni «reaksion kuchlar» sifatida talqin etib, 1920-1930-yillarda jadid ziyolilarni

qatagʻon qildi. Ammo ular boshlab bergan milliy oʻzlikni anglash gʻoyasi keyinchalik Oʻzbekiston mustaqilligiga olib kelgan manaviy asos boʻldi. 1920-yillarning oxiriga kelib sovet hokimiyati harbiy kuch yordamida harakatni bostirdi. Ammo bu harakat Turkiston xalqlari tarixida milliy oʻzlikni saqlab qolish, ozodlik va mustaqillik uchun kurashning timsoliga aylandi.

Bosmachilik deb atalmish bu harakat xalq ongidan milliy oʻzlikni, dini, tilni, erkinlikni saqlash vositasi boʻlgan. U mustaqil davlat tiklash orzusining ramziga aylangan. [2. 106-b]. 1991-yilda Oʻzbekiston mustaqillikka erishganidan, bu tarixiy jarayonlar yangicha baholandi. Endilikda milliy ozodlik harakati «aksilingilob» emas, balki mustamlakachilikka qarshi xalq kurashi sifatida talqin qilinmoqda.

XULOSA

Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida oʻta murakkab, ammo ayni paytda taqdiriy ahamiyatga ega bosqichlardan biri boʻldi. Turkiston ASSR shakllanishi milliy oʻlkalarda yangi hokimiyat tizimini oʻrnatish, sinfiy kurashni kuchaytirish hamda sobiq mustamlaka xalqlarini Sovet Rossiyasining siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy orbitasiga bogʻlab qoʻyish uchun xizmat qildi. Shunga qaramay, Turkiston ASSRning paydo boʻlishi oʻzbek, tojik, turkman, qirgʻiz va qozoq xalqlari uchun siyosiy uygʻonish jarayonini ham tezlashtirdi.

Turkiston ASSR — bu tarixiy zarurat natijasida yuzaga kelgan, ammo milliy uygʻonish jarayonining tayanch nuqtasi boʻlgan siyosiy tuzilmadir. U orqali oʻlka xalqlari oʻzining milliy birligi, siyosiy oʻzini anglash va mustaqillikka intilish yoʻlida muhim qadamlarga qoʻl urdilar. Demak, Turkiston ASSRning tarixiy geografiyasi nafaqat hududiy birlik, balki milliy ruh va ijtimoiy ong uygʻonishining makoni boʻldi. U Markaziy Osiyo tarixida milliy mustaqillik yoʻlida qoʻyilgan birinchi siyosiy va mafkuraviy qadam sifatida yodda qoladi. Bugun bu tajriba mustaqil Oʻzbekistonning davlatchilik anʼanalarida, tarixiy xotira va milliy gʻurur manbalarida oʻz ifodasini topmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. – Toshkent: Book Trade, 2022. – 59 b.
2. Rashidov A.R. Turkiston ASSR va sovet siyosati. – Toshkent: Fan, 2020. – 98 b.
3. Rashidov A.R. Turkiston ASSR tarixidan lavhalar. – Toshkent: Fan, 1968. – 63 b.
4. Shamsitdinov R. Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Universitet, 2018.
5. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. Oʻzbekiston tarixi. – Toshkent, 2010. – 187 b.

6. Xursanova F. 1924-yildagi milliy hududiy chegaralanish va uning oqibatlarini // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2023.
7. Xo‘jayev F. O‘zbekiston SSR tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 173 b.
8. Ziyoyeva D.A. Turkiston milliy ozodlik harakati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 37–39 b.
9. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 154–156 b.
10. Yavmutov D. S., Yuldosheva B. M. Issues of assessment of the natural resource potential of the region for recreational purposes //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 77-86.
11. Yuldosheva B. 1989–2007-yillarda O ‘zbekistonda suv resurslarining holati va o ‘zgarishlari //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 87-97.
12. Yuldosheva B., Latipov M. Z. o. g. l. 1920–1924-yillarda Xorazm Xalq Sovet Respublikasida yer-suv islohotlari va ularning iqtisodiy ta’siri //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025. – T. 5. – №. 4. – C. 344-354.
13. Yavmutov D. S., Azamat o‘g‘li A. A. Conceptual bases of marketing research organization at agricultural enterprises //IMRAS. – 2024. – T. 7. – №. 5. – C. 104-109.